

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



ALEKSANDR POPOV
(1859-1906)

2022
IYUL
№42



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
8-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-8**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-8**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 42-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Hamidov Davron Valijon o'g'li	
ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATI VATAN MAVZUSI BADIY TALQINI.....	7
2. Jumabayeva Sultonposhsha Bepulatovna	
AHMAD LUTFI QOZONCHINING "O'GAY ONA" ASARIDAGI RUHIYAT CHIZGILARI.....	10
3. Jumabayeva Yulduzxon Bepulatovna	
PAULO KOELONING ALKIMYOGAR ASARI HAQIDA MULOHAZALAR.....	12
4. Vafoqulova Go'zal Ochilovna	
AHMAD YASSAVIY HIKMATLARI TAHLILI	14
5. Авезкулова Комила Комил кизи	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ «ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ».....	16



АДАБИЁТ

ISTIQLOL DAVRI SHE'RIYATI VATAN MAVZUSI BADIY TALQINI

Hamidov Davron Valijon o'g'li

Namangan davlat universiteti talabasi

Telefon: +998943082002

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada mustaqillik davri she'riyatining o'ziga xos jihatlari va unda vatav mavzusining badiiy talqinda yoritilishi tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR: milliy istiqlol g'oyasi, mustaqillik she'riyati, mustaqillik shoirlari, adabiyot, san'at.

Mustaqillik davri she'riyatida ayniqsa mustamlakachilik davridan keyin kelgani uchun ajoyib yuksalish bo'ldi deyish mumkin. Chunki, so'z erkinligining cheklanishi ijod ahli dardlarida dard qo'shgan, quvonch-u sevinchini kuylayshga imkon yo'q bo'lgan bir davrda o'sha orziqib kutilgan mustaqillikka erishilgan edi va bu erk kuylash, ta'sirchan misralar bitilishiga, necha yillardan beri shoir yuragida yashab kelayotgan so'zlar tilsimini ochilishiga sabab bo'ldi.

Istiqlol davri she'riyati mavzular xilma-xilligi bilan xarakterlidir. So'z erkinligi har-xil mavzularda bemalol qalam tebratishga imkon beradi. Shuning uchun choirlar o'zlari hoxlagan usul va shakllarda ijod qila olishganini ko'rish mumkin.

Bu davr she'riyatining ilk mavzusi Vatandir, chunki vatan – kindik qonimiz to'kilgan joydir uni harbir shoir o'zicha talqin qiladi. Ayniqsa, “Vatan” mavzusi mustaqillik yillarida “Ozod vatan”, “Erkin vatan” mavzulari bilan almashdi.

Ona mavzusi ham vatan mavzusi kabi birdek kuylanishi kerak bo'lgan mavzudir. Ona go'dakni inson bo'lib shakllanishida asosiy o'rin tutadi.

Yana istiqlol shoirlari do'stlik, tabiat, olamga bo'lgan muhabbat, Oллоhga bo'lgan muhabbat, ishq, tarixiy siymolar haqida davr voqealari, bunhyodkorlik ishlari, texnika mo'jizalari, go'zallik haqida, ilm va ma'rifat yutuqlari xususida misralar bitib, ijodga oshno qalblarni xushnud etib kelishayotganini ko'rishimiz mumkin.

Har bir ijodkor turli mavzulni qamrab olgan ijodiy merosga ega. Faqat bir mavzu yuzasidan she'r yozgan ijodkor bo'lmasa kerak. Shoirlar serqirra, mavzular ko'lamiga keng sharoitlarda ijod qilishgan.

Istiqlol she'riyatida Vatan mavzusi eng dolzarb va serqirra mavzulardan hisoblanadi. Vatan mavzusiga yirik-yirik ijod namunalari taqdim etgan ijod ahli bilan bir qatorda hali she'riyat debochasida turgan yosh qalam ahli ham to'xtalib o'tishgan.

Keksa avlod vakili bo'lgan Abdulla Oripovning “Vatan” she'riga qarang:

Diyorim O'zbekistondir, ki andin iftixorim bor,
Demakki, hur adolatlig', davlati barqarorim bor,
Onamdek mahribon, munis Vatan bor, g'mgusorim bor,
Vatandan ayri kongilni bilingki, yayratib bo'lmas.

Baayni bandi bulbulni chamansiz sayr etib bo'lmas.[1.-B. 251.]

Shoir bu she'rida shu vatani bilan faxrlanadi. Davlatda adolat va barqarorlik hukmronligi g'amlarini ham Vatanda unutishi, onadek mehribonligi, Vatandan uzoqda ming go'zal joylarda bo'lsang ham ko'nglingda g'ashlik hukmronligi, bulbulni chamansiz sayratib bo'lmaganidek, insonni ham vatansiz tasavvur etib bo'lmasligi she'rning asosiy g'oyalari sirasiga kiradi. She'r juda eng ma'nolarni namoyon qilgan.

Shoirning “Vatan farzandi” she'rida Vatan mavzusi o'zgacharoq namoyon bo'lgan:

Kim uning xizmatining etolsa ado,
Ikki dunyoda ham bo'lmagaydir kam.



O'zini ta'masiz qildimi fido,

O'sha zot Vatanga farzand chinakam [2.-B.32.].

She'rmazmuni cuqur va keng. Kimki vatan xizmatida bo'lsa u ikki dunyoda ham kam bo'lmaydi, o'zini sozsiz fido qilsa demak u Vatanga farzand, kabi g'oyalar she'rda jamlangan. Shoir vatan mavzusini pok va onadek mehribon deb ta'riflaydi. Abdulla Oripov Vatan mavzusiga juda ko'p marta to'xtalgan, lekin har gal bu mavzuni turlicha jonlantirgan.

Vatan mavzusiga o'zgacha bir jilo bergan shoir Muhammad Yusufdir.

Men dunyoni nima qildim,

O'zing yorug' jahonim.

O'zim xoqon, o'zim sulton ,

Sen taxti Sulaymonim,

Yolg'izim, Yagonam deymi,

Toppingan koshonam deymi,

O'zing meni ulug'lardan,

Ulug'imsan, Vatanim...[3.-B.10.]

“Vatanim” nomli bu she'rda shoir Vatanni yolg'iz, yagona, ulug', sultonlarday qudratli deb ta'riflaydi. Vatan mavzusini shoir yana bir qirrasini ochgan, ya'ni vatan men uchun yorug' jahon, deb ta'riflagan. Vatan shodon kunda guldek nola chekkan chekkan kunda yupatgan, sajdagoh kabi muqaddas ekanligi she'r mazmunini yanada chuqurlashtirgan. She'rni keyingi misralarida ajdodlar ruhiga ham murojaat qilgan.

Ko'hna tol beshikdan

Boshlangan olam.

Senga iddaolar

Qilmay sevaman.

Bir kuni singlim deb,

Bir kuni onam -

Vatan, Kimligingni

Bilmay sevaman![3.-B.155.]

Vatanga muhabbat ruhi bilan sug'orilgan she'r shoir ijodining xilama-xilligidan dalolat berib turadi. “Ko'hna tolbrshikdan boshlangan olam” iborasida “Tolbeshik” deb go'daklik nazarda tutilgan. She'rda yana bir yangilanish bor, ya'ni “Vatan” “Payg'ambar” ga qiyoslanadi. She'r shakli ham o'zgacharoq bo'lganidek, mazmuni ham o'zgacha.

“Tavallo” nomli bu she'rda shoir musurmonlar uchun muqaddas maskan Makkaga qiyoslaydi. She'r g'oyasining asosini vatanni hech kimga bermaslik, ona kabi Vatan ham buyuk ekanligi tashkil qiladi. Yana she'rda vatan soddadil, ulug'vor, deb ta'riflanadi. She'rda Vatan o'g'lonlarining harbiriga Alpomishlar ruhi yorligi alohida e'tirov etiladi. Va bu o'g'lonlar borligi uchun qo'rg'onlarga yovlar yaqin yo'lolmasligi alohida ta'kidlanadi. Vatanni tuzuni totib, uni unutish gunohdir. Darhqiqat shunday, she'rda ham bu fikr ko'zga tashlanadi.

O, ota makonim, onajon o'lkam,

O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.

Senday mehribon yo'q,

Seningdek ko'rkam,

Rimni alishmasman bedapoyanga [3.-B.267.].

Muhammad Yusuf ushbu “O'zbekiston” she'rda Vatan mavzusini o'zgacha talqin qilgan. Dunyoning eng go'zal shaharlaridan biri Rimni shoir vatanning bedapoyasiga ham alishmasligini ta'kidlaydi. She'rda vatan shunchalar ulug'lanadiki, “uch kunda sog'inaman tuproqlarini” degan iboralar qo'llanadi, yana she'rda eng go'zal shaharlardan biri parij restoranlarini, bitta tondirga almashmaydigan sodiq farzand siymosini yaratishga harakat qilgan. Shoir ijodi mazmunan chuqur, vatan mavzusi keng yoritilgani bilan ajralib turadi.

Vatan mavzusiga alohida to'xtalgan iste'dodli shoir Sirojiddin Sayyiddir. Uning she'rlarida ham Vatan mavzusi o'zgacha turlanadi.

Yurtim, menga zar kerakmas, zalaringdan,

Kipriklarim o'psalar bas gardlaringdan.

Men bir nasim bo'lib keldim, men bir nasim,

Aytib o'tsam deyman ko'hna dardlaringdan.[4.-B.15.]

“Ilinj” nomli bu she'rda shoir vatanda yashashning o'zi kifoya, uning zarlari kerakmas, sening



dardingni olsam bas, shu kifoya kabi g’oyalarni ilgari surgan. She’rning serqirra va mazmunli bo’lishiga shoirning tajribasi va iste’dodi asosiy sababchi bo’lib xizmat qiladi. Shoir ijodida bunday she’rlar bisyor.

Vatan mavzusining qirralarini Mirpo’lat Mirzo ijodida ham ko’rishimiz mumkin.

Boshiga g’am soyasi tushib turgan kez,

Chorasiz boqurmiz, gangib daf’atan.

Xolbuki urvoqcha emas qayg’umiz

Sen chekkan g’ussalar oldida, Vatan! [5.-B. 254.]

Bu she’rda vatan boshidan o’tkizgan g’am-g’ussalar haqida so’z ketadi. Vatanimiz tarixida o’tgan ming mashaqqatlar shoirning bu she’ri asosini tashkil qiladi.

Vatan mavzusiga juda ko’p shoirlar to’xtalib o’tishgan. Shoirlar ijodining asosini vatan tashkil etgan. Chunki, mustaqillik vatan mavzusini kuylashga xuquq beradi.

Ko’p zamonlardan beri vatan mavzusi ona mavzusi bilan yonma-yon tilga olinadi. Mustaqillik davri shoirlari ham ona mavzusiga yetarlicha to’xtalib o’tgan. Chunki, ona muqaddas zot, ona farzandni dunyoga keltirib, parcha go’shtdan katta qiladi, uni yozmaslik gunoh, uni yozmaslik beraxmlik.

Shunday qilib istiqlol davri boshqa davrlardagi she’riy muhitga nisbatan mavzular doirasining kengligi, ijod erkinligining boyligi bilan ajralib turadi. Mustaqillik shoirlari ijodi turli-tuman mavzularning moxirona yoritilishi bilan harakterklidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Oripov A. Tanlangan asarlar.- Toshkent: Adabiyot va san’at. 2001.
- 2.Oripov A. Menga xushxabar ayt.- Toshkent: Ma’naviyat. 2009.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma- Toshkent:Sharq. 2005.
- 4.Sirojiddin Sayyid. Vatan abadiy- Toshkent: Sharq, 2001.
- 5.Abdulla Oripov va boshqalar. XXasr o’zbek she’riyati antologiyasi.- Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.



АХМАД ЛУТФИ ҚОЗОНЧИНИНГ “О‘ГАЙ ОНА” АСАРИДАГИ РУHIYAT CHIZGILARI

Jumabayeva Sultonposhsha Bekpulatovna

Qoraqolpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani

23- maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarlarning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati, bugungi kunda yoshlarni kitobxonlikka keng targ'ib qilish masalalari, Ahmad Lutfi Qozonchining “O'gay ona” asaridagi ruhiyat chizgilari yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'gay ona, badiiy adabiyot, inson ruhiyati, muallif, kitobxon, qalb kechinmalari, qahramon, his-tuyg'u, mohiyat.

Hozirgi zamonaviy texnika va texnologiyalar asrida insonlarni ommaviy madaniyat qurshovidan asrab qoluvchi eng ma'naviy boylik bu badiiy adabiyotlar hisoblanadi. Hozirgi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan yoshlarni kitobxonlikka keng jalb qilish borasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, har bir oliy ta'lim muassasi balki mahallarda ham kitobxonlik tanlovlari o'tkazilib kelinmoqda. Bu bilan biz juda katta natijalarga erishishimiz balki ma'naviy dunyoimizni kengaytirishimiz mumkin. Bu hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Badiiy adabiyot, badiiy asarlar insonlarga juda kuchli ta'sir ko'rsata oladigan ilohiy bir kuchdir. U inson his-tuyg'ularini va ongini tarbiyalashda ulkan rol o'ynaydi. Badiiy asarlarning mualliflari bilan birgalikda kitobxon hayotning turli tomonlari, xarakterlar va hodisalar mohiyatiga kirib boradi hamda o'zida ularga bo'lgan munosabatni shakllantiradi. Insonni o'ylashga, fikrlashga va kechayotgan voqealarni tahlil qilishga chorlaydi. Badiiy adabiyot bitmas-tuganmas g'oyalar manbayi hisoblanadi. Unda turli zamonlardagi kishilarning fikrlari, o'y-mulohazalari, orzu-umidlari, jamiyatdagi siyosiy, mafkuraviy, axloqiy-ta'limiy, falsafiy, diniy va boshqa xildagi qarashlar o'z aksini topadi. Shu bilan birga, o'zi aks ettirgan g'oyalar bilan kishilar qalbiga, ruhiga kuchli ta'sir o'tkazib, ularda yangi-yangi qarashlar, fikrlar tug'ilishiga, ularning ma'naviy jihatdan boyishiga, ongining o'sishiga xizmat qiladi. Inson ruhiyati tasvirlanar ekan, uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi ma'lum. O'smir shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, buning sababi, u doimo inson davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rin tutadi.

Kitobxon dunyoqarashini boyitishda badiiy tafakkurning o'rni katta. Unda:

- badiiy adabiyot namunalarining hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishdagi o'rni yoritib berish;
- asarlardagi ezgulikka eltuvchi voqea-hodisalarning mohiyatini ochib berish;
- hayotdagi har bir lahzaning mohiyatni anglash yo'lidagi zanjir vazifasini bajarishi mumkinligini o'rgatish;
- hayot yo'lida uchragan ma'lum to'siq va qiyinchiliklarni muvaffaqiyatsizlik deb emas, yanada yuksalish uchun bir sabab deya qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish kabi vazifalar belgilab olingan.

Inson ruhiyati va ma'naviyatiga ta'sir etuvchi asarlar juda ko'p. Masalan, Said Ahmadning “Ufq”, Isojon Sultonning “Boqiy darbadar”, O'lmas Umarbekovning “Odam bo'lish qiyin”, Ahmad Lutfi Qozonchining “O'gay ona” kabi. Har bir insonni bosayotgan qadamini o'ylantirib qo'yishga chorlaydigan asarlardan biri – Ahmad Lutfi Qozonchining “O'gay ona” asari hisoblanadi. Asardagi qahramonlarning holatiga diqqat qaratadigan bo'lsak, qalbimizda bir tug'yon jo'sh uradi, qalbimiz larzaga keladi, ana shu qahramonlar holatida o'zimizni bir zum his qila olamiz: “Ota ko'ngli bir ayol bilan to'lishi mumkin. Faqat bola ko'nglini oladigan, ko'nglini to'ldiradigan ayol endi dunyoda yo'q.”

Ota sevgisi bir insonga bo'lgan sevgidan iborat, bolaning mehr-muhabbati esa faqat onaga bog'liqdir. Ona yer yuzida bir donadir, yagonadir. Uning onasi o'lgach, uyga yangi bir ona keladi. Otaning aytishicha, bu onaning avvalgisidan kamchilik tarafi yo'q. Faqat bolaning fikricha, bu ona bilan avvalgi onani qiyoslash inson bilan uning soyasini tenglashtirishdek gap. Biri butun borlig'i bilan shafqat va marhamatdan iborat bo'lsa, boshqasi faqat moddiy va shakliy jihatdangina onaga o'xshaydi. Biri sevsa, ikkinchisi uradi, biri bag'riga bossa, o'zgasi ko'ksidan itaradi. Birinchisi – ona, ikkinchisi – o'gay ona”. Kitobxon mana shu satrlardan ham qahramonning ichki dunyosini,



qahramon tilini, ruhiy holatini anglab olsa va o'ziga zarur xulosalarni chiqarsa ajab emas.

Badiiy adabiyotning ko'p asrlik taraqqiyoti, uning kishilar dunyosiga, ularni qurshab turgan tashqi borliq bilan aloqalariga va o'zaro munosabatlariga tobora chuqur kirib borganligidan dalolat beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, badiiy adabiyotning bosh mavzusi insondir. Insonning badiiy asarlarda markaziy o'rinni egallashi dunyoni badiiy ravishda anglash va ijod sohasida kishilik tomonidan bosib o'tilgan katta yo'lning natijasi hisoblanadi. Ushbu asarning yana bir holati insonning ruhiyatiga, insoniyligiga bevosita ta'sir etmasdan qolmaydi: "Tush, Quyosh harorati kuchayganida qabristondan naqdar gunohkor va bemehrligini anglagan ota hamda uning ota mehridan mahrum bo'lgani uchun ona xokini yuzga surtib, ona tuprog'iga bosh urishdan boshqa chorasi qolmagan tolesiz o'g'li chiqishmoqda...". Parchaga diqqatimizni qaratadigan bo'lsak, otaning o'z zuryodi hisoblanmish farzandi arjumandiga qanchalik e'tiborsizligini balki farzandi oldida gunohkor ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'z otasidan balki butun hayotning shafqatlisizligidan charchagan, ayni yoshlik chog'ida mehr olishi kerak bo'lgan davrida hech kimdan najot topa olmagan bola oxiri najotni ona qabridan topishi bu anchagina kitobxonni tashvishga soladi. Asardan kitobxon o'ziga nima oladi?! Eng avvalo, hayotga bo'lgan qarashi o'zgaradi. Muhabbat, mag'lubiyat, qat'iyat, ishonch, g'alaba, mehnat, hissiyot, harakat, tajriba kabi tushunchalarni qaytadan kashf qiladi. Bevosita asardagi qahramon bilan qalban yaqinlashadi, ruhan eziladi, bir zum o'zini qahramon holatiga solib ko'radi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, badiiy adabiyotning inson hayotida ahamiyati juda yuqori. Inson ardoqlab keladigan eng noyob hislar insonparvarlik, adolat, shafqat, o'zaro hamjihatlik, do'stlik, mehr va muruvvat, sevgi-muhabbat singari o'lmas insoniy tuyg'ular kishi ongida, shuurida, ruhiyatida mujassamlashadi va bu hislar adabiyotga oshno insonlar qalbiga ko'chib o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Lutfi Qozonchi. "O'gay ona" www.ziyouz.com kutubxonasi. 2007.
2. <https://cyberleninka.ru>
3. <http://www.samdu.uz>
4. <http://www.scientificprogress.uz>
5. <http://tadqiqot.uz>



PAULO KOELONING ALKIMYOGAR ASARI HAQIDA MULOHAZALAR

Jumabayeva Yulduzxon Bekpulatovna

Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
26- maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kitobxon dunyoqarashini boyitishda badiiy tafakkurning o'rni yoritib berish “Alkimyogar” asari misolida maqsad qilib olingan. Yozuvchi asarning bosh qahramoni orqali to'g'ri maqsad qo'ya bilish, o'rni kelganda hayot tizginini o'zgartira olish, oddiy insonlarning ham kezi kelganda buyuk marralarga erisha olishi va kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik holatlarga diqqat qaratgan.

Kalit so'zlar: “Alkimyogar”, asar, badiiy adabiyot, intilish, shijoat, inson mohiyati, orzu-maqsad, motivatsiya, niyat, hayot.

Inson qalbi tubidagi orzu-niyatlarini yuzaga chiqarish yo'lida kechgan mashaqqatli kurashlarning yurakda qoldirgan jarohatlari izini payqamay, yillar mobaynida umidini yurak tafti bilan oziqlantirib umr bo'yi intilganiga erishish yo'lida qaysidir vositadan dasturul amal sifatida foydalanishga o'zida ehtiyoj sezadi. Aynan shu jihatdan, real ko'lamli, mazmunan falsafiy, mohiyatan esa oddiy insoniy muammo borasida so'z yuritilgan “Alkimyogar” asarini mutolaa qilish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Mazkur roman braziliyalik yozuvchi Poelo Koelo qalamiga mansub bo'lib, taqdir Xudo tomonidan insoniyatga buyurilgan, umri mobaynida ado etishi lozim bo'lgan oliy majburiyat hamda har bir inson o'z taqdirining yaratuvchisi ekanligi gavdalandirilgan.

Asar mazmunan yaxlit tuzilishga ega bo'lib, uni o'qigan kitobxonda o'ziga bo'lgan ishonch ortadi, “uxlab yotgan” qirralarini ochishga undaydi va hayotga besamar kelmaganligini uqtirib, olamga yangi nigoh bilan boqishga chorlaydi. Ushbu fikrlarning isboti sifatida ushbu asar yuzasidan jahon bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, asarni o'qigan insonlarning 73 foizi o'zini qayta kashf qilgandek his qilib, qalbida kurashuvchanlik mayog'i alanga olganligini ta'kidlaganligini keltirish mumkin hamda bu adabiyotning Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda, atomdan kuchli ekanligini yana bir bor ifodalab beradi.

Asarning buyukligi shundaki, hatto eng chekka qishloqda yashayotgan jo'n odamlarga ham kitobxonlar qatori birdek ta'sir qiladi, insonni anglashga, uning ruhiy dunyosiga kirishga va odamning o'y-tuyg'ularini bus-butun tasvirlab bergan. Misol uchun aytganda, bor-yo'g'i bir-ikkita qoramoli bo'lgan kimsada asarni o'qigandan so'ng, uni chorvaga aylantirish, keyinchalik o'z biznesini yo'lga qo'yish istagi tug'iladi va hokazo.

Asar orzu-maqsadlarga yetishdagi to'rt g'ov: bolalik chog'idagi orzularga bo'lgan taqiqlar; maqsad yo'lida jimjimador rangdagi sevgi; omadsizlik va mag'lubiyatdan qo'rqish tuyg'usi; orzulari ijobati oldidagi qo'rquv kabilar yechimiga asoslangan. Jumladan, to'siqlarning birinchisi ota-onalar tomonidan bolaning yoshlik chog'larida uning orzu-maqsadlarini to'g'ri baholay olmay, intilish va shijoatini so'nishiga sababchi bo'lmasligi yozuvchi tomonidan kitobxonga uqtirilgan. Bu borada asarda keltirilgan: *“Olam qalbi inson baxtidan oziqlanadi. Odamning yakka-yu yagona majburiyati: o'z Taqdiri yo'lidan oxirigacha borish. Hammasi – shunda mujassam. Yodingda tut, sen biror narsani istagan paytda butun Olam sening istagingni amalga oshishiga yordam beradi”*, degan fikrlar birinchi g'ovning yechimi bo'la oladi. Buni asarning bosh qahramoni Santyagoning o'z maqsadlari yo'lida otasining istaklaridan ko'ra, olam kezish orzusini ustun qo'yishi va oqibatda orzulari yo'lidan yurib, o'z taqdirining chinakam yaratuvchisiga aylanganida ham ko'rish mumkin.

Agar inson birinchi to'siqni yengib, o'z yo'lini belgilab olsa, inson xayolidagi keyingi g'ov- sevgi uni qarshi oladi. Ammo *inson mehr-muhabbatning orzu yo'lidagi to'siq emasligini tushunmaydi. Zotan, sevgi halal bermaydi, balki aksincha, harakatga rag'bat uyg'otadi*. Mazkur holat Santyago va Fotimaning sof munosabatlarida yaqqol ifodalangan bo'lib, qiz sevgisiga qalbiga quloq solishini, maqsadi yo'lidan chalg'imasligini ta'kidlab, haqiqiy muhabbat qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatib qo'ygan. Demak, insonda sof muhabbat va o'tkinchi hoyu- havasni teran anglashda mazkur sujetning badiiy ta'siri kuchli.

Kishi sevgining to'siq emas, balki tayanch ekanligini anglab yetgan chog'da unga uchinchi to'siq xavf soladi: bu – omadsizlik va mag'lubiyatlardan qo'rqish tuyg'usi. Kishi qalbida unga kuch beruvchi yashirin olov mavjud. Ayrim insonlarda dastlabki muvaffaqiyatsizlikdayoq o'ziga bo'lgan ishonchning yetishmasligi oqibatida mazkur olov asta so'nadi. Bu g'ov mardonavor yengib



o'tilsa, olov alanga olib, maqsadlari yo'lida chinakam mayoqqa aylanadi. Agar chinnivor sotuvchisi ham o'z maqsadiga erishish uchun bel bog'laganida, albatta, buning uddasidan chiqar edi. Ammo uning omadsizlikka uchrashidan qo'rqishi hech qachon o'z qobig'idan chiqa olmasligiga olib keldi. Natijada imkoniyati bo'la turib, islomning besh amallaridan biri – haj ziyoratidan qolib, maqsadlari quruq orzuga aylanganicha qoldi. Zotan, har qachon intilishni to'xtatmaslik lozim. Chunki yopilgan har eshik o'zidan ziyodasining ochilishiga zamin yaratadi.

Hayotda shunday holatlar bo'ladiki, muvaffaqiyatga atigi bir qadam qolganda uning orzulari ijobatidan qo'rquv hissi chulg'ab oladi. Oskar Uayld ta'kidlaganidek, “Odamlar eng yaxshi ko'rgan narsalarini vayron qiladilar”. Bu esa qachonlardir inson qalbini aybdorlik tuyg'usining egallab olishiga olib keladi. Shunday ekan, har lahzada olg'a borib, Alkimyogar aytganidek, *hayotingning xazinasiga bir gavhar qo'shish va bundan umrbod rohatlanish* lozim.

Yozuvchi hayotdagi har bir voqea-hodisaning bejiz emasligini ta'kidlab, buni Santyagoning taqdirida yorqin ifoda etib beradi. Xususan, Santyago Marokashga kelganda, uning hamyonining o'g'irlanishi natijasida pul topish zaruriyati paydo bo'lib, billur idishlar sotuvchisiga yordamchi bo'lib ishlashiga sabab bo'lgan. Bu esa bolaning sotuvchidan arab tilini o'rganib, u orqali kelajakda Misrga boradigan karvondagi safari, Al-Fayumdagi qabila boshlig'i bilan bo'lgan muloqot hamda chin sevgilisi arab qizi Fotimaga yurak to'ridagi iliq tuyg'ularini izhor qilishiga asos bo'lgan. Fotima ham uni qalban anglab, maqsadi sari tayanch bo'lish holatlari kitobxonda taqdirdagi sinovlarning ilohiy zanjir ekanligi hamda bu zanjirni o'z o'rnida qilingan to'g'ri harakatgina uzviy bog'lay olishi o'quvchiga ulkan ma'naviy ozuqa beradi.

Asardagi voqealar ko'lami kishilarning ong va dunyoqarashini o'stirishi bilan birga undagi hikmatli so'zlar javohir sandig'ini dur-u gavharlarga boyitadi:

➤ *Agar inson nimanidir chin dildan istasa, butun koinot ushbu orzuni amalga oshirishda yordam beradi. Chunki bunday istak olamning qalbida paydo bo'ladi;*

➤ *Agar sen ham bugungi kuning bilan yashaganingda edi, Xudoning eng baxtli bandasi bo'lar eding;*

➤ *Alomatlariga e'tibor bilan qarashga va ularga ergashishga o'rgan;*

➤ *Baxtning butun sir-u asrori – dunyoning mo'jizalari va go'zalligini aniq ko'rishdir;*

➤ *Bir bo'lgan hodisa boshqa takrorlanmasligi mumkin. Biroq ikki marta ro'y bergan hodisa yana ro'y berishi mumkin;*

➤ *Biror narsa qanchalik g'ayritabiiy bo'lsa, ko'zingga shunchalik oddiy ko'rinadi, ularning asl ma'nosini anglash esa faqat donishmandlarning qo'lidan keladi;*

➤ *Dunyoni harakatlantiradigan kuch bu Olam qalbi deb ataladi. Unda esa juda katta qudrat mujassam. Qalb faqat odamlarga xos xususiyat emas, olamdagi jamiki unsurlarda – u toshmi, giyohmi, hayvon yoki, hatto fikrmi – barisida qalb bor;*

➤ *Yomonlik insonning og'ziga kirayotgan narsadan emas, chiqayotgan narsadan tug'iladi;*

➤ *Har kimning o'z o'qib-o'rganish usuli bor;*

➤ *Insonning bu dunyodagi yagona vazifasi O'z Taqdiri yo'lidan oxirigacha borishdir kabi fikrlar shular jumlasidan.*

Xulosa qilib aytish mumkinki, badiiy adabiyot namunalari insonga ma'naviy ozuqa beradi, o'zgalarning hayotiy tajribasidan xulosa chiqarish kishining shu kabi noqulay vaziyatlarga tushib qolishining oldini oladi, fikrlash doirasini o'stirib, jamiyat hayotida o'z fikrlarini erkin bayon eta oladigan shaxs bo'lib yetishishida ma'naviy poydevor vazifasini bajaradi. Shu jihatdan „Alkimyogar“ asari ham ulkan hayotiy fikrlar xazinasiga bo'lib, hayotga o'zgacha va ijobiy yondashishga undaydi hamda qalb ko'zining ravshan ochilishiga juda katta turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Paulo Koelo. “Alkimyogar”. T.: “Yoshlar kutubxonasi”, 2018.
2. The best motivation book. <https://www.books.com>
3. www.tadqiqot.uz



АҲМАД ЯССАВИЙ ҲИКМАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik
litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon +998(97)9252885

Annotatsiya: Maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlari tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mouman, muqir, irdi, yozuq, pir, darvesh, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, imyon.

Ahmad Yassaviy she'riyatidagi obrazlar tuzilishi ham tasavvuf ta'limoti bilan, ham og'zaki ijod an'analari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Masalan, she'rlarda uchrovchi pir, darvesh, oshiq, obid, oqil, zohid, ishq, tolib, ummat, rasul, shayton, imyon kabi obrazlar bevosita tasavvuf bilan bog'lansa, yo'l, rabot, karvon, o'q kabilar og'zaki ijod an'analari bilan aloqador holda yuzaga kelgan.

Nafs haqida gapirar ekan, Yassaviy uni insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baholaydi. Unga "shum" sifatining berilishi bejiz emas. Shuningdek, "nafsi bad", "nafs yo'li", "nafsi ilgi" singari ifodalar shoir fikrini yorqinlashtiradi. Adib to'g'ridan to'g'ri nafsni tepkil, nafsdan kech deya targ'ib qiladi.

Ahmad Yassaviy shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat bosqichlarining xususiyatlaridan kelib chiqib o'z hikmatlarida takabburlikka qarshi «xoksorlik» falsafasini ilgari suradi, mutafakkir nazdida takabburlik adolatning dushmani.

Ahli dunyo xalqimizda saxovat yo'q,

Podshohlarda, vazirlarda adolat yo'q.

Ahmad Yassaviyning falsafiy talqinicha podsho va amaldorlarning adolatsizliklari hayotga qattiq ziyon-zahmat etkazadi. Bu odamlar o'rtasida hurmatsizlik, oqibatsizlik, shafqatsizlik hissiyotlarini kuchaytiradi. Bu xil ijtimoiy muhitda riyo va makkorliklar qariyb qonuniyatga aylanadi. Vaholanki, Yassaviy boy-badavlat kimsalarga, mansabdorlarga, umuman, ahli mo'minga qarata:

G'arib, faqir etimlarni qilg'il shodmon,

Haqlar qilib aziz joning ayla qurbon,

Taom topsang, joning bila qilg'il ehson,

Haqdin eshit bu so'zlarni aydim mano.

Bular bejiz aytilmagan, Yassaviy ijtimoiy nohaqlikni chuqur angelaydi, uning mohiyatini teran fahmlaydi. Zotan tasavvufning o'zi bir paytlar mavjud, tuzum adolatsizliklariga norozilik kayfiyatlari ifodasi sifatida maydonga kelgan edi. Ahmad Yassaviy dunyoparast, molparast, xasis, ochko'z kimsalarni qattiq tanqid tig'i ostiga oladi:

Dunyoparast nojinslardan buyun tovla,

Buyun tovlab daryo bo'lib toshdim mano.

Umuman, dunyodorlik, ahli havo, manmanlik, takabburlik, nafs balosiga bandalik, mansabparastlik, kibr, xudbinlik, fuqaroga napisand qarash, zulm-zo'rlik, behuda xusumat, adovat, g'iybat, kishilar moliga ko'z tikish, ko'rolmaslik, fisqu fujur, amal otiga minib olib o'zgalarni nazarga ilmaslik kabi illatlar takror-takror eslatilib Yassaviy hikmatlarining asl g'oyasi belgilaydi:

Munofiqlar yururlar fisqu fujur qilurlar,

Harom, shubha eyurlar, qo'rqub yig'lar Xoja Ahmad.

Yassaviy hikmatlarida «Qur'oni karim» oyatlari, rivoyatlari, suralari tajassum topgan, hadis bitiklarining mazmuniy mohiyati she'rga singdirilib ularda Odam ato, Momo havo, Yusuf, Yunus, Ya'qub va boshqa talab rivoyatlarga ishoralar bor:

Yunusdek daryo ichra baliq bo'lsam,

Yusufdek quduq ichra vatan qilsam

Yoqubdek Yusuf uchun ko'p yig'lasam.

Bu ish birla yorab, seni topgaymumen?

«Qur'on» hikoyatlaridan foydalanib she'rga solinib donishmandona jilo berilgan va hikmatlarda singdirilgan iboratomuz o'gitlar mu'jaz talqinda kishilarni yaxshilikka, ezgulikka yo'naltiradi.

Yassaviy tasavvuf yo'lini tutgan barcha so'fiylar bir xil emasligini, ularning yaxshilari va



yomonlari mavjudligini yaxshi anglab etadi va yomonlarini ochiq-oydin yomonlaydi, tanqid qiladi:

Darveshman deb toat qilur xalq ichinda,

Riyo qilib yugurib yurar anda-munda

Oллоҳ uchun toat qilg'on darvesh qanda.

Chin darveshlar tog'u cho'lni makon qilur.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida «tuproq» so'zi tez-tez uchraydi, bu so'z aslida badiiy obraz sifatida qo'llanadi va chuqur g'oyaviy mazmun, mohiyat kasb etadi:

Tufroq bo'lg'il, olam sani bosib o'tsin...

Bu xildagi misralar «Devoni hikmat»da istagancha topiladi:

Ishq bobini Mavlon ochgach, manga tegdi.

Tufroq qilib, hozir bo'l deb bo'ynim egdi.

Tasavvufda, tuproq, Ollohnning munavvar nuri suv uning yorug' hayoti, havo buyukligi, olov uning g'azabi timsoli. Tuproq va suv-jannat mulki, shamol va olov-do'zax ichidagi narsalar. Demak, tuproq Yassaviy talqinida inson, u shu tuproqda, erda, zaminda yashaydi, undan o'z rizqini undiradi, tuproq-maskan, tuproq-vatan, odam tuproqdan bino bo'lgan va u yana tuproqqa aylanadi, unga qaytadi, o'zligini topadi. Tuproq-ko'p ma'nolarga ega, u badiiy obraz shaklida Yassaviy hikmatlarining g'oyaviy mazmunini belgilaydi.

Ulug' alloma shoir Xoja Ahmad Yassaviy XII asr olamida, o'zining asarlari orqali turkiy adabiyotni va eski turkiy adabiyot tilining mavqeini jahon miqyosiga ko'tardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.To'xliyev va boshqalar Adabiyot. (majmua). 10-sinf uchun.T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 49-57-betlar



ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ «ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ»

Авезкулова Комила Комил кизи,
базовый докторант кафедры
«Узбекского литературоведения»
Национального университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Телефон: +998946537003
camili.avezkulova@gmail.com

АННОТАЦИЯ: В данном тезисе рассматриваются понятия «образ» и «художественный образ», различия их определения, типология художественного образа, некоторые теоретические обоснования понятия художественного образа и его свойства. Также были рассмотрены причины различной интерпретации данного понятия в разных этапах развития литературы и культуры.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: образ, художественный образ, эстетическая функция, типология художественного образа, свойства художественного образа.

Всякое искусство условно пересоздает образы природы. Литература посредством художественного мышления переносит образ действительности в текст художественного произведения. По определению Ю.Борева, художественный образ – это иносказательная, метафорическая мысль, раскрывающая одно явление через другое [1]. Художественный образ – это семантическая единица, имеющая внешнюю форму и внутреннее содержание, созданное творческой фантазией. Всякий художественный образ несет в себе эстетическое значение. То есть художественный образ отличается от просто образа тем, что имеет эстетическую функцию, целенаправленное выдумывание.

В литературе художественный образ – имеет словесную форму, и слово обеспечивает тот эстетический механизм, который осуществляет воссоздающее изображение, поскольку слово как раз включает комплекс ассоциаций, значений, которые переживает читатель.

Типологию художественного образа можно представить по следующим принципам:

1. предметное содержание образа. Предполагает следующие типы образов:

- а) образы – люди, которые создают систему персонажей;
- б) образы природы (пейзаж) – выделяется также городской пейзаж;
- в) образы – вещи (предметные), которые формируют интерьер;
- г) архетипные образы.

2. по принципу формы выразительности:

- а) зрительные образы;
- б) музыкальные (эмоциональные) образы;
- в) образы мысли.

Проблема образности связана с различными специфическими чертами образного мышления. Эти специфические черты выражают проблему взаимоотношения художника и действительности; проблему восприятия художественного образа и проблему взаимодействия образов внутри эстетического целого.

По мнению литературоведа Л.И.Тимофеева, художественный образ является конкретной и в то же время обобщенной картиной человеческой жизни [2]. Это важная эстетическая категория, созданная при помощи воображения. Это преобразование действительности, а не сама действительность и не похож на реальное явление или предмет. Главной функцией художественного образа становится отражение особенных для писателя тем, идей, проблем и переживаний.

Определение понятия «художественный образ» предусматривает такие его свойства:

- парадоксальность. По мнению психолога Л.С.Выготского, при создании истинного произведения искусства стоит придерживаться принципа невозможности [3]. Ведь сама структура художественного образа предусматривает диалектическое единство противоположных начал;

- сочетание общего и конкретного. Согласно эстетике Гегеля, к основной функции художественного образа относится воплощение общих идей в индивидуальном [4]. В



частности, образы в живописи конкретны. Ведь художнику не свойственно мыслить абстрактными категориями при создании очередного шедевра изобразительного искусства. Вместе с тем он пытается перенести на полотно какие-то общезначимые идеи. Существует тесная взаимосвязь единства общего и конкретного с проблемой типического. Под последним понимают отображение в индивидуальном наиболее значимых (типичных) черт общего.

Порой может показаться, что в поэтических и музыкальных творениях безраздельно властвует чувство. А рациональная составляющая практически не заметна. Но это не совсем соответствует действительности. Полная характеристика художественного образа подразумевает единство чувства и разума (эмоционального и рационального).

В литературоведении существуют множество понятий, терминов, которые имеют конкретное определение и значение, но по истечению времени они подвергаются трансформации и модификации. Также категория «художественный образ» в разных этапах развития литературы и культуры в целом имела отличительные трактовки. Эти процессы происходили по следующим причинам:

- каждая эпоха имеет свои особенности отражения действительности. Это особенно влияет на процесс создания художественных произведений (сентименталисты, романтики, реалисты, модернисты, постмодернисты и т.д.);

- активное развитие искусства предопределяет изменение соотношения реальности и идеала (романтизм), эмоционального и рационального аспектов жизни (классицизм), действительности и фантазии (антиутопия, научная фантастика, фэнтези), изменение общечеловеческих ценностей (модернизм, постмодернизм), глобализации культуры (мультикультурализм) и т.д.

Литература:

1. Борев Ю. Теория литературы. – М.: 2001. – 370 с.
2. Выготский Л.С. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т.1. Вопросы теории и истории психологии. – М.: Педагогика, 1982. – 488 с.
3. Гегель. Эстетика. – М.: Искусство, т.-3. 1973. – 537 с.
4. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971. – 384 с.
5. Хамдамов У. Жаҳон адабиёти: модернизм ва постмодернизм. – Т.: Академнашр, 2020. – 288 б.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.07.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000